

2026 - yil - Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish yili



МУКОФОТ МУБОРАК!

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўқитувчи ва мураббийлар куни муносабати билан таълим-тарбия тизимида алоҳида ўрнатилган ходимлардан бир гуруҳини мукофотлаш тўғрисида"ги Фармонида мувофиқ таълим соҳаси фидойилари фахрий унвон, орден ва медаллар билан мукофотландилар.

Улар орасида шахримиздан: "ШУХРАТ" МЕДАЛИ БИЛАН Аманов Бахтияр Хушбакович – Чирчиқ давлат педагогика университетининг генетика ва эволюцион биология кафедраси мудири тақдирланди.



ЧИРЧИҚ ТОНГИ

**Toshkent viloyati
Chirchiq shahar
hokimligining
ijtimoiy-siyosiy gazetasi**

**2025-yil, 19-sentabr JUMA
37-son (10284)**

Мамлакатимизда таълим соҳасини ислоҳ қилиш ва уни замон талабларига мос ҳолда ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Хусусан, мактабга-ча таълим тизимида сўнгги йилларда кенг қўламли ўзгаришлар амалга оширилиб, соҳа янги босқичга кўтарилди.

Бу ҳақда куни кеча Тошкент вилояти Бўстонлиқ туманида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев раислигида ўтказилган тадбирда ҳам сўз борди. Ўқитувчи ва мураббийлар куни муносабати билан ташкиллаштирилган тантанали тадбирда давлатимиз раҳбари ўз ҳаётини ёш авлодга таълим-тарбия беришдек энг улғу ишга бағишлаб келаётган барча муаллимларни табриклаб, уларга чуқур ҳурмат-эҳтиромини билдирди.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ АСОСИЙ УСТУНИ – БИЛИМ, ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯДИР!

2



ИСТИҚБОЛЛИ ЛОЙИХАЛАР – ФАРОВОНЛИК КАФОЛАТИ

Ислоҳот



Хабарингиз бор, жорий йилнинг 11 сентябрь куни Президентимиз Шавкат Мирзиёев Тошкент вилоятида ислоҳотлар натижадорлиги ва янги режалар муҳокамаси юзасидан йиғилиш ўтказиб, янги режа ва лойиҳалар тақдими билан танишди.

Маълумки, замонавий иқтисодиёт тамойиллари ҳудудларни ривожлантириш учун бошқарувнинг янги ёндашувларини талаб этади.

Ривожланган мамлакатлар айнан ҳудудий тараққиётни йўлга қўйган ҳолда давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ҳолатининг барқарор ўсишига эришмоқда. Ҳудудларда ички имконият ва салоҳиятнинг ишга солиниши натижасида аҳолининг даромади ошиб, ишсизлик даражаси пасаяди. Саноатлаштиришни қўллаб-қувватлаш ҳисобига инфратузилмани маҳаллийлаштириш борасида юқори кўрсаткичларга эришилади. Бу эса табиийки, нафақат импорт ўрнини босувчи маҳсулотларнинг ортиши, балки экспорт географиясининг кенгайишига, қўшимча қиймат яратилишига, валюта тушуми кўпайишига, юқори ҳақ тўланадиган иш ўринларининг ташкил этилишига хизмат қилади.

2

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ АСОСИЙ УСТУНИ – БИЛИМ, ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯДИР!

(Давоми. Боши 1 - саҳифада)

Давлатимиз раҳбари ўз нутқида сўнгги саккиз йилда таълим соҳасида мисли кўрилмаган ўзгаришлар рўй берганини алоҳида таъкидлади.

– 2017 йилда 4 мингдан ортиқ маҳаллада бирорта ҳам болалар боғчиси йўқ эди, қамров 27 фоиздан ошмасди, – деди Президент Шавкат Мирзиёев. – Бугунги кунда боғчалар сони 38 мингдан, қамрови эса 78 фоиздан ошди. Шунинг ўзи мактабгача таълим тизимига қаратилган эътиборнинг қай йўсинда кечаётганини кўрсатиб турибди. Бу жараёнда давлат-хусусий шериклик асосида боғчалар ташкил этилиши, янги муассасалар қурилиши ва мавжудларини реконструкция қилиш муҳим омил бўлди.

Бу ҳали ҳаммаси эмас, боғчадаги раҳбар ва педагогларнинг ойлиги қарийб 2 қарра ошди.

Йиғилиш давомида давлатимиз раҳбари келгусида режалаштирилган ишларга ҳам тўхталиб ўтди. Таъкидланишича, энди давлат ва хусусий боғча тарбиячиларини ишдан ажралмаган ҳолда олий таълимда ўқитиш йўлга қўйилади. Худди Президент мактаблари каби ҳар бир вилоятда “Янги авлод” боғчалари ташкил қилиниб, тарбиячилар илғор педагогик технологияларни ўрганадилар. Энг

муҳими, янги методикаларни ўрганиш учун бу масканларнинг эшиги хусусий боғча тарбиячиларига ҳам доимо очиқ бўлади.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда 35 мингдан ортиқ мактабгача таълим ташкилотлари фаолият юритмоқда. Улар орасида замонавий талабларга жавоб берадиган, болаларнинг ҳар томонлама ривожланиши учун барча шарт-шароитларга эга муассасалар сони йил сайин ортиб бормоқда.

Шу билан бирга, йиғилишда давлатимиз раҳбари томонидан таълим-тарбия тизимидаги устувор вазифалар белгилаб берилди. Президент таъкидлаганидек, “Янги Ўзбекистоннинг асосий устуни – билим, таълим ва тарбиядир!”. Шу боисдан педагог ва мураббийларнинг нуфузини ошириш, уларнинг меҳнатини муносиб рағбатлантириш, малакасини ошириш ва жамиятдаги обрўсини мустаҳкамлаш давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири ҳисобланади.

Йиғилишда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, ҳар бир болага сифатли таълим-тарбия бериш, бу жараёнда тарбиячиларнинг ўрни ва масъулиятини ошириш зарурлиги алоҳида таъкидланди.

Давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан соҳага катта инвестициялар йўналтирилиб, тарбиячиларнинг малакасини ошириш, уларни замонавий пе-

дагогик методикаларга ўргатиш юзасидан ҳам изчил чора-тадбирлар кўриб борилмоқда.

Эътиборли жиҳати шундаки, видеоселектор тарзида ўтказилган тадбирда шахримизда жойлашган 14-сонли мактабгача таълим ташкилотидан янги технология асосида олиб борилган амалий ишлар алоҳида эътироф этилди.

Маълумки, шахримизда ҳам мактабгача таълим тизими ривожига катта аҳамият қаратилиб, сўнгги йилларда бир нечта янги боғчалар қурилди, кўплаб муассасалар тубдан таъмирланди.

Ҳозирги кунда шахримизда жами 61 та мактабгача таълим ташкилоти фаолият юритмоқда. Уларнинг 30 таси давлат мактабгача таълим ташкилоти, 15 таси хусусий, 1 таси давлат-хусусий шериклик асосидаги боғча, 15 та оилавий мактабгача таълим ташкилотидир. 3-7 ёшли болалар сони 9 минг 880 нафарни ташкил этиб, уларнинг 8 минг 358 нафари мактабгача таълим ташкилотларига қамраб олинган.

Давлатимиз мустақиллигининг 34 йиллиги олтидан 14-сонли давлат мактабгача таълим ташкилотининг фойдаланишга топширилгани шаҳар ҳаётида катта воқеа бўлди. Энг муҳими, мазкур муассаса Хитой Халқ Республикаси тажрибаси асосида қурилган илк намунавий боғчалар-

дан бири ҳисобланади.

Болаларни илк ёшдан меҳнатсеварликка, касбларга ўргатиш уларнинг келгусида ҳаёт йўлини тўғри белгилашда муҳим аҳамият касб этади.

Айтиш керакки, мазкур мактабгача таълим ташкилоти капитал реконструкция қилиниб, мутлақо янги қиёфа касб этгани билан диққатга сазовордир.

Бу ерда “Илк қадам” мактабгача таълим муассасасининг ўқув дастури билан биргаликда Хитой тажрибаси асосида таълим-тарбия жараёнларида ўйин усулларидан кенг фойдаланиш, ватанпарварлик, жамоа билан ишлаш, болаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантириш кўзда тутилган.

– Бутунлай янгича услубда иш бошлаган мазкур болалар боғчасида тарбияланувчиларни касб-хунарга йўналтиришга оид машғулотлар олиб борилади, – деди Чирчиқ шаҳар Мактабгача ва мактаб таълими бўлими бошлиғи Нодира Қурбонова. – Ушбу янгича метод келгусида болаларнинг касб танлашида ўзига хос аҳамият касб этиши, шубҳасиз. Мазкур боғчадаги илғор тажрибани бошқа мактабгача таълим ташкилотларида ҳам тарғиб қилиш кўзда тутилмоқда.

– Боғча бундан қирқ йиллар аввал барпо этилиб, узоқ йиллар фаолият кўрсатмаётган эди, – деди 14-мактабгача таълим

ташкilotи мудираси Камола Турсунова. – Қайтадан бунёд этилган 240 ўринли ушбу боғча нафақат кичкинтойларимиз балки, уларнинг ота-оналари учун ҳам ўзига хос совға бўлди. Чунки бу ерда болажонлар таълим-тарбия билан биргаликда касб-хунарга ҳам ўргатилади.

Замонавий боғча спорт ва маданий дам олиш заллари, ошхона, тиббиёт хоналари замонавий жиҳозлар билан таъминланган. Шунингдек, очиқ ҳавода болалар учун махсус спорт майдончалари ва хавфсиз ўйин ҳудудлари яратилди.

Хитой тажрибасига асосланган бундай муассасаларнинг қурилиши Чирчиқ шаҳрида мактабгача таълим қамровини янада ошириш билан бирга, педагогик жараёнга илғор хорижий методикаларнинг ҳам киритиши билан аҳамиятлидир. Бу эса болаларнинг ёшлигидан замонавий билим олиши ва ҳар томонлама соғлом ривожланишига хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, юртимизда мактабгача таълим соҳасида амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар ва яратилган имкониятлар ёш авлоднинг ҳар томонлама ривожланиши, уларнинг билимли ва соғлом бўлиб улғайиши учун мустаҳкам замин яратади.

Мафтуна
АЛЛАБЕРГАНОВА

ИСТИҚБОЛЛИ ЛОЙИҲАЛАР – ФАРОВОНЛИК КАФОЛАТИ

(Давоми. Боши 1 - саҳифада)

Давлатимиз раҳбарининг алоҳида эътибори туфайли ҳудудларнинг фойдаланмай келаётган имкониятлари, янги қувватларнинг ишга солиниши ҳамда ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар бир неча баробар орди. Янги амалиётнинг татбиқи этилаётганига ҳали унча кўп бўлмаган бўлсада, салмоқли натижаларга эришиляпти. “Ислохотлар штаби” мамлакатимизда амалга оширилаётган янги ланиш жараёнларини тизимли ва самарали мувофиқлаштириб бораётган муҳим тузилмадир. Энг афзал жиҳатларидан бири шаффофлик ва очиқлик тамойилларига асосланган ҳолда иш жараёнлари замонавий рақамли технологиялар асосида ташкил этилганидир. Бу орқали ахборот алмашинуви тез ва аниқ йўлга қўйилиб, қабул қилинаётган ташаббуслар жойларда ўз вақтида амалга оширилмоқда. Очиқ эшиклар сиёсати эса аҳолининг тақриф ва фикрларини комплекс ўрганиш имкониятини беради. Буларнинг барчасидан кўзланган асосий мақсад аҳолининг турмуш даражасини оширишдан иборат.

Тошкент вилоятида ҳам бу ишлар тизимли ташкил этилмоқда. Сўнгги йилларда вилоятнинг саноат салоҳияти бир неча баробарга оширилган бўлсада, ҳали ишга солилмаган имкониятлар кўлами кенг. Бунинг учун вилоятда етарлича салоҳият мавжуд.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев вилоятимизда ислохотлар натижадорлиги ва янги режалар муҳокамаси юзасидан йиғилиш ўтказар экан, ҳудуднинг 22 та туман ва шаҳарларидаги то шу кунгача амалга оширилган ишлар таҳлил қилинди, шунингдек, давлатимиз раҳбарининг ташаббусига мувофиқ, Тошкент вилоятида ҳам “Ислохотлар штаби” тузилди. Йиғилишда штаб томонидан тайёрланган режа ва лойиҳалар тақдимот қилинди. Президентимиз томонидан мазкур лой-

иҳаларни бекаму-кўст амалга оширишга кўмаклашиш айрим масалаларни зудлик билан ечиш бўйича масъул вазирлик ва идораларга тегишли топшириқлар берилди.

Президентимиз лойиҳалар билан атрофлича танишиб, қўшимча имкониятларни кўрсатиб ўтди.

– Тошкент вилояти саноатда ҳам қишлоқ хўжалигида ҳам энг катта салоҳиятга эга ҳудуд, асосийси, вилоят юртимиздаги энг йирик истеъмол ва хизматлар бозорини, яъни пойтахтимизни ҳар томондан ўраб туради. Бу ҳам жуда катта имконият. Уни тўлиқ ишга солиб, инвестиция, экспорт ва иш ўрни кўрсаткичини қарра сига оширсан бўлади, – деди давлатимиз раҳбари.

Йиғилишда Тошкент шаҳри ва туманлари ҳокимлари ҳам қатнашди. Тошкент вилоятидаги бўш ерлар “Тошкент инвест” компанияси ва шаҳарларнинг саноат зоналари дирекциясига ажратилиб, уларга экологияга зарар келтирмаётган корхоналар кўчирилиши айтилди. Тошкент вилоятининг барча ҳудудларини пойтахт билан тезкор электр поездлар орқали боғлаш вазифаси белгиланди. Бу орқали у ерларда ҳам янги уй-жойларнинг инфратузилма хизматларига талаби ошади. Одамлар пойтахтга қатнаб ишлаши мумкин бўлади.

Вилоятдаги 263 та маҳалла бирор маҳсулот етиштириш, саноат ёки хизмат кўрсатишга ихтисослашмаган. Шу боис, уларда боғдорчилик, лимон, узум, малина, брокколи ва кўчат етиштиришни ривожлантириш режалаштирилмоқда. Бу маҳаллаларга “Агростар” компаниясини боғлаб уруғ, кўчат ва кафолатли харид бўйича одамларга ёрдамлашиш юзасидан кўрсатма берилди.

Тошкент вилояти ер ва сувга жуда бой. Бундан самарали фойдаланиб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини кўпайтириш билан бирга, уларни қайта ишлаб, экспортни ошириш вазифаси қўйилди. Умуман



барча имкониятларни юзага чиқариб, маҳаллаларни ишсизлик ва камбағалликдан ҳоли ҳудудга айлантириш зарурлиги таъкидланди.

Йиғилиш давомида вилоят раҳбари томонидан шахримизда амалга оширилаётган амалий ишлар, режаларга ҳам алоҳида тўхталиб ўтилди.

Хусусан, Нурафшон, Олмалиқ ва шахримизда хорижий инвестиция иштирокида саноат корхоналарини ташкил этиш учун 2 та нимстанция қуриш кўзда тутилмоқда.

Шунингдек, шахримизда 24 соатли туризм кўчаларини ташкил қилиш бўйича ишлар бошлаб юборилган. Мазкур кўчада бир неча савдо, кўнгилочар, гастрономик, туризм ва санъат йўналишларига ихтисослашган хизмат кўрсатиш объектларини ишга тушириш режалаштирилган. Мақсад – аҳолига қулай шароит яратиш, шаҳарнинг иқтисодий ва ижтимоий ҳаётини ривожлантиришни таъминлаш бўлиб, бундан ташқари, кўплаб иш ўринлари яратилишига замин ҳозирланмоқда.

Шунингдек, савдо ва хизмат кўрсатиш

объектларининг 24 соат мобайнида фаолият юритишига доир жамоат хавфсизлиги билан боғлиқ талаблар ўрнатилиши белгиланган.

Вилоятнинг 6 та ҳудудида ёш тадбиркор Шохрух Иззатуллаев томонидан Германия давлати билан ҳамкорликда дуал таълим малака ошириш маркази ташкил этилади.

Бекобод ва Чирчиқ шаҳарларида йилига 1500 нафаргача ўрта тиббиёт ходимларини Тиббиёт техникумида дуал таълим асосида ўқитиб, Германияга В-1, В-2 сертификати билан “ГЛОББОТЕЖ” корхонасига тартибли миграция орқали ишга юборилади.

Лаборатория ва электрон жиҳозлар учун Камбағалликни қисқартириш вазирлиги томонидан 1,0 млрд сўм ссуда ажратиб берилгани эътироф этилди.

Барча имкониятларни ишга солиб, маҳаллаларни ишсизлик ва камбағалликдан ҳоли ҳудудга айлантириш зарурлиги – асосий вазифа экани таъкидланди.

Ирода МУҲАММАДАЗИЗОВА

ERTANGI KUN ZAMINI – MUALLIM VA TA'LIM

Yurtimizda har yili 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni katta shodiyona va tantanalar bilan nishonlanadi. Bu sana taqvimning eng ezgu va nurli sahifalaridan biridir. Chunki ushbu kun nafaqat pedagoglarimizning uzluksiz mehnatini e'tirof etish, balki ularning jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos xizmatlarini yana bir bor yuksak qadrlash uchun ham ulkan imkoniyatdir. O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan Toshkent viloyatining go'zal Bo'stonliq tumanida tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Tabiatning musaffo qo'ynida, ilm va ma'rifat ravnaqiga bag'ishlangan ushbu tantanada Vatan taqdiri, millat kelajagi uchun xizmat qilayotgan fidoyi pedagoglar qatnashdi.

Ushbu sahifada Chirchiq davlat pedagogika universiteti faollari tomonidan bildirilgan munosabatlarni chop etishni lozim deb bildik.



Baxodir ESHCHANOV,
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor

– Tarixiy uchrashuvning O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida tashkil etilgani bejiz emas. U pedagoglarga ko'rsatilayotgan yuksak hurmatning ramzi bo'lish bilan birga, ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish yo'lidagi qat'iy qadam sifatida ham tarixga kirdi.

Davlat rahbari o'z nutqida o'qituvchilik kasbini jamiyat taraqqiyotining tayanch kuchi sifatida baholab, pedagoglarning fidoyiligi va xizmatlarini qadrlash davlat siyosatining bosh yo'nalishlaridan ekanini alohida ta'kidladi. Ustozlarning maqomini yuksaltirish, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish – millatning kelajagini mustahkamlashga qaratilgan eng muhim vazifalardan biridir.

Tadbir davomida ta'lim rivojiga ulkan hissa qo'shgan fidoyi o'qituvchilar davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar. Bu esa ularning mehnati qanchalik qadrlanishini, yoshlar tarbiyasi va bilim olishidagi fidoyiligi jamiyat e'tiboridan chetda qolmasligini ko'rsatdi. Mukofot sohiblari faoliyati barcha pedagoglar uchun ibrat bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

So'nggi yillarda ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan mablag'lar sezilarli darajada ortgani, maktab va oliygohlarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanayotgani, o'qituvchilar uchun yaratilayotgan imtiyoz va sharoitlarning kengaygani — mamlakatimizda bu soha izchil islohotlar sari qadam tashlayotganidan dalolatdir. Prezident o'z nutqida ikki Renessans davrida ajdodlarimiz ilm-fan va ma'rifat rivojiga qo'shgan beqiyos xizmatlarini eslab, ustozlarni qadrlash qadimiy an'ana ekanini, bugungi kunda ham bu qadriyat dolzarb ahamiyat kasb etayotganini alohida ta'kidladi.

Bugungi kunda pedagoglarning qadr-qimmatini va sha'nini yuksaltirish orqali Yangi O'zbekistonning intellektual va ma'naviy poydevori yaratilmoqda. Ustoz – nafaqat bilim manbai, balki yoshlarni hayot sinovlariga tayyorlovchi, ularni mustaqil fikrlash, ezgu niyat va buyuk orzular sari yetaklovchi kuchdir.



Sayyora ARZIMOVA,
Gumanitar fakulteti Fakultetlararo
rus tili kafedra o'qituvchisi

– Zamon taraqqiyoti ilm va ma'rifatdan boshlanadi. Ilm shamini yoqadigan, ma'rifat nurini tarqatadiganlar ham shu sofdil va fidoyi ustozlardir. Davlat rahbari boshchiligida tashkil qilingan uchrashuvni katta hayajon va hayrat bilan kuzatdim. Unda aytilgan yangi imkoniyatlar ustozlarning yuzida quvonch, qalbida iftixor, ko'zlarida umid nurini yanada porlatdi. Bu islohotlar nafaqat ularning kundalik hayotini yengillashtiradi, balki butun jamiyatda pedagog kasbining qadrini yuksak pog'onaga ko'taradi.

Berilgan imtiyozlar bilan tanishar ekanman, ko'nglimdagi xursandchilik yuzimda aks etdi. Ayniqsa, kelgusi yildan pedagoglar uchun davlat xizmatlari to'lovining ikki barobarga kamaytirilishi, dunyoning TOP-300 oliygohlariga kirgan pedagoglarga 20 ming AQSH dollarigacha imtiyozli ta'lim krediti berilishi – ustozlarning vaqti va mablag'ini asrab, ko'proq o'z ustida ishlashga imkoniyat yaratadi, shuningdek, butun avlodning ravnaqiga xizmat qiladi.

Yurtimizda yil sayin yangi maktablar, zamonaviy texnikumlar va kasbiy ta'lim markazlari qurilmoqda. Darsliklar yangilanmoqda, elektron ta'lim platformalari joriy etilmoqda. Bundan tashqari, chet tillarini o'qitish, fanlar bo'yicha zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish, o'qituvchilar malakasini oshirish uchun xorijiy tajribalarni jalb etish ishlari olib borilmoqda.

Har bir ustozning hayotida eng katta mukofot – bu shogirdining yutug'i, yurtimiz taraqqiyotida munosib o'rin egallashidir. Shu ma'noda, ustozlarimiz faqat bilim emas, balki mehr, insof, sabr va vatanparvarlik tuyg'ularini ham tarbiyalab kelmoqda.

Mamlakatimiz ravnaqi, kelajagi va buyuk maqsadlarning ro'yobi – ustozlar qo'lida. Ustoz qalbidan o'tgan nur – yurt kelajagini yoritadi. Shu boisdan ham Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan yangi tashabbuslar va qator islohotlar pedagoglarga bo'lgan yuksak e'tiborning yorqin ifodasidir.



Go'zal OTAMUXAMEDOVA,
Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va
ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash
bo'limi boshlig'i

– Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan tashabbuslar mamlakatimizda pedagoglarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy maqomini oshirish hamda ta'lim sifati va samaradorligini yangi darajaga olib chiqishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Pedagoglar uchun berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar nafaqat moddiy yordam, balki kasbiy faoliyatda kuchli rag'bat manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

15 yil va undan ortiq tajribaga ega oliy toifali o'qituvchilar uchun ipoteka krediti boshlang'ich badalining chorak qismini davlat zimmasiga olish, pedagoglarning farzandlari davlat oliygohlariga qabul qilinganda kontrakt to'lovining uchdan bir qismigacha chegirma qo'llash, o'qituvchilarga 10 million so'mgacha imtiyozli kredit asosida shaxsiy kompyuter xarid qilish imkoniyatini yaratish, davlat xizmatlari uchun to'lovlarni pedagoglar uchun kelasi yildan boshlab ikki baravar arzonlashtirish, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga milliy sertifikat tizimini joriy qilish va sertifikat sohiblariga oylik ish haqiga qo'shimcha 15 foiz ustama belgilash, bakalavni imtiyozli diplom bilan tugatganlarga maktabda ish boshlashda avtomatik ravishda 2-malaka toifasini, magistr'larga esa 1-malaka toifasini berish, dunyoning TOP-300 talik oliygohlarida ta'lim olayotgan pedagoglarga 20 ming dollargacha imtiyozli kredit ajratish, yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishgan ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun ichki turizm imkoniyatlarini kengaytirish — yiliga bir marotaba temir yo'l va aviachipta xaridida 15–20 foizlik chegirmalar joriy etish shular jumlasidandir.

Mazkur chora-tadbirlar, avvalo, pedagoglarning moddiy farovonligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'quv jarayonining samaradorligi ortib, yosh avlodga sifatli ta'lim berish imkoniyatlari yanada kengayadi.



Javlonbek ABDUSAMATOV,
Iqtidorli talabalarning ilmiy
tadqiqot faoliyatini tashkil etish
bo'limi boshlig'i

– Ustoz va murabbiylar kuni arafasida ta'lim sohasi vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvda davlat rahbari ta'limni milliy taraqqiyotning bosh omili, o'qituvchilarni esa jamiyatda eng katta ehtiromga loyiq kasb egalari sifatida e'tirof etdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchilarning mehnatini qadrlash, ularning ijtimoiy sharoitini yaxshilash va kasbiy malakasini yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini yanada oshirib, ularga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini bermoqda.

Uchrashuvda oliy ta'limdagi ustuvor maqsadlar ham belgilab berildi. Yaqin yillarda O'zbekiston mintaqaviy ta'lim va ilm-fan markaziga aylanishi, jahon reytingida tan olingan universitetlar soni keskin oshishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda 4 ta oliy o'quv yurtimiz TOP-1000 talik ro'yxatga kirgan bo'lsa, ularning sonini 10 taga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Shu maqsadda, mamlakatimiz oliygohlari xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda IT, sun'iy intellekt, tibbiyot, agrotexnologiya va "yashil energetika" kabi yo'nalishlarda qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yimoqda.

Kelgusida dunyoning eng kuchli universitetlari filiallari yurtimizda faoliyat boshlashi, shuningdek, xalqaro ta'lim forumlari o'tkazilishi kutilmoqda. Bu jarayon xorijiy talabalar sonini bir necha barobar oshiradi, ta'lim eksportini esa 200 million dollargacha yetkazadi.

Ushbu islohotlar natijasida O'zbekiston ta'lim tizimi butunlay yangi bosqichga ko'tarilib, yoshlar zamonaviy tafakkur, ilmiy izlanish va innovatsion bilimlar bilan qurollangan holda voyaga yetadi. Eng asosiysi, ta'lim sohasiga berilayotgan bunday ustuvorlik mamlakatimizni ilm-fan va madaniyat sohasida yuksak marralarga olib chiqadi.

Zero, Ustozga bo'lgan minnatdorlik – millatning kelajakka bo'lgan ishonchi, ustozga bo'lgan ehtirom – millatning o'z kelajagiga e'zoz ko'rsatishidir.

ИНВЕСТИЦИЯ – ТАРАҚҚИЁТ КАЛИТИ

«Махам-Чирчиқ» АЖ деганда, кўз олдимизда юзлаб муҳандислар, минглаб ишчиларнинг саботли меҳнати, саноатнинг юраги бўлган ишлаб чиқариш майдонлари гавдаланади. Бу корхона – бутун авлодлар тақдирини уйғунлашган, меҳнат қудрати ва садоқат намунасига айланган жойдир. Шу муқаддас маконда авлоддан-авлодга ўтиб келаётган Қодировлар сулоласи мактаби мавжуд.

Сулоланинг пойдевори Воҳид Қодиров номи билан боғлиқ. У киши оддий ишчи сифатида корхона остонасини хатлаб, кичик лавозимдан бошлаган меҳнат йўли йиллар давомида улғувор манзилга – директорлик даражасига қадар етаклади. Воҳид ака 1963-1984 йилларда директор лавозимида ишлаб, ўзининг ҳалол меҳнати, инсонпарварлиги ва ташкилотчилик қобилияти билан жамоа ҳурматига сазовор бўлганлардан. У раҳбар сифатида корхона манфаатини шахсий манфаатидан устун қўйди, «бирга меҳнат қилган инсон билан бирга нафас олиш» тамойилини ҳаётига татбиқ этди. Шу боис, унинг номи ҳурмат билан тилга олинади, уста-ишчилар ҳам, муҳандислар ҳам Воҳид Қодировни ҳақиқий раҳбар сифатида эслашади.

Сулоланинг навбатдаги давомчиси Воҳид Қодировнинг жияни – Қаюм Қодиров 1950 йилда туғилган. У 1973 йили Тошкент политехника институтини тамомлаб, «Электромеханоат» корхонасининг 15-цеҳида смена бошлиғи сифатида иш бошлади. Қаюм ака илм ва амалиётни уйғунлаштириб, ўз устида тинмай меҳнат қилди. Ҳар бир босқич унга янги масъулият, янги синов бўлди. Аммиак ишлаб чиқариш цеҳида смена бошлиғи, компрессия цеҳида технолог, бош муҳандис, 1-Тозалаш цеҳида бошлиқ муовини, 2-Аммиак цеҳида муҳандис-технолог сифатида нафақат иш жараёнини назорат қилди, балки янгилик киритиш, самарадорликни ошириш, ҳар бир ишчининг малакасини юксалтиришга эътибор берди.

Қаюм Қодиров Синтез цеҳи бошлиғи, ПТОда янги техника бўлими бошлиғи, бош технолог, ОТК цеҳи бошлиғи лавозимларида ҳам ташкилотчи сифатида ўзини намоён этди. Ундан минглаб ишчилар меҳнатда собитлик, илмда изланиш, ҳаётда эса инсонийлик дарсини олди. 46 йилдан ортиқ давом этган меҳнат фаолияти Қаюм Қодировнинг ҳаёт китоби сифатида ёдга олинади. У нафақат ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, балки бутун жамоанинг маънавий тарбиясига, устози сифатида танилди. Фаолиятининг сунғи йилларида у Фавкулдада вазиятлар бўлимига раҳбарлик қилди. Қўшимча масъуллиқ талаб қиладиган лавозимда хавфсизликни таъминлаш, инсон ҳаётини асраш, ишчи-жамоа тинчлигини ҳимоя қилишдек шарафли ишга ўз ҳиссасини қўшди.

Қодировлар сулоласи нафақат меҳнати билан, балки ватанпарварлиги, садоқати ва инсонпарварлиги билан ҳам юксак кадр топганлардан. Улар учун меҳнат – кундалиқ вазифа эмас, балки авлоддан-авлодга ўтувчи муқаддас аниёна. Бугунги кунда шу нурили изни Қаюм Қодировнинг фарзанди – Абдулаҳад Қодиров давом эттирмоқда.

Абдулаҳад Қодиров 1974 йили Тошкентда туғилган. Болалиқдан атрофидаги муҳит – саноат ва меҳнат руҳи унга таъсир қилмай қолмади. Шу боис, у отаси изидан бориб, саноат йўлини танлади. 1990 йилларнинг ўрталарида Тошкент давлат техника университетида таҳсил олди. 1997 йилдан бошлаб университетда орттирган назарий билимларини ишлаб чиқаришда қўллаб бошлади. У «Махам-Чирчиқ» АЖнинг 2-Аммиак цеҳида газни тозалаш бўлими аппаратчиси сифатида меҳнат фаолиятини йўлга қўйди. Ёш мутахассис изланишдан, ўрганишдан тўхтамади. Ҳар бир вазифани масъулият билан бажариб, поғонама-поғона – газогенерация бўлими аппаратчиси, компрессия бўлими машинисти, бошқарув пульта оператори ва смена бошлиғи вазифаларига кўтарилди. Кейин иссиқлик манбаи муҳандиси ва реконструкция

бўйича цеҳ бошлиғи муовини сифатида цеҳ тараққиёти учун тер тўқди. Унинг саъй-ҳаракатлари иш жараёнини такомиллаштиришга, самарадорликни оширишга хизмат қилди.

– Институтда олинган билим амалиёт билан уйғунлашиши керак. Меҳнат бор жойда машаққат ҳам бўлади. Аммо қийинчиликлар – тажриба мактаби вазифасини ўтайди, – дейди Абдулаҳад Қодиров.

Ўз устида тинмай ишлаган, замонавий билим ва илғор тажрибани ўзлаштирган мутахассис 2021 йилда корхонанинг Инвестиция бўлими бошлиғи лавозимига тайинланди. Бугун у заводнинг тараққиёт йўлидаги муҳим стратегик йўналишларга масъул шахс сифатида меҳнат қилмоқда. Унинг зиммасига – корхонага киритилаётган инвестицияларни тўғри назорат қилиш, режалаштирилган лойиҳаларни амалга ошириш, илғор технологияларни ўрганиш ва тажриба алмашиш ҳамда ишлаб чиқариш жараёнига замонавий ғояларни жорий этиш вазифалари юкланган.

Инвестиция – тараққиёт калити, дейишади. Корхонанинг эртаси, шубҳасиз, инвестиция билан чамбарчас боғлиқ. Ҳозирда заводда қатор йирик лойиҳалар амалга оширилмоқда. Жумладан, энергосамарадор технология асосида ҳавони тақсимлаш ускунаси қурилиши режалаштирилган. Шу билан бирга, 2-Аммиак цеҳида модернизация ишлари олиб борилмоқда. Хорижий компанияларнинг таклифлари ўрганилмоқда ва бу жараён тендер асосида ҳал этилади.

– Инвестицияда энг муҳим қоида – маблағни зарур ва дозарб йўналишларга йўналтиришдир. Шундагина натижа самарали бўлади, – дейди биз билан суҳбатини давом эттирар экан суҳбатдошимиз. – Хорижий ва маҳаллий инвесторлар билан ҳамкорлик – корхона учун янги имконият эшигидир. Айниқса, ўз маблағимиз етарли бўлмаган ҳолларда хорижий сармоя катта ёрдам беради. Биргаликда ишлаб чиқариш самарадорликни оширишга хизмат қилади.

Ҳақиқатан ҳам, ҳозирги кунда корхонада амалга оширилаётган йирик лойиҳалар айнан шундай тўғри йўналишлар натижасидир. Режалаштирилган ишлар орасида ҳавони тақсимлаш ускунаси қурилиши, 2-Аммиак цеҳида модернизация жараёнларини такомиллаштириш, хорижий технологияларни жалб қилиш каби йирик йўналишлар бор.

Қодировлар сулоласи – бу бир кишининг эмас, балки бутун бир оиланинг меҳнат мактабидир. Абдулаҳад аканинг фарзандлари ва яқин қариндошлари ҳам турли соҳаларда завод тараққиётига ҳисса қўшиб келишмоқда. Укаси Фарҳод Қодиров – 1998 йилда 2-Аммиак цеҳида чилангар бўлиб иш бошлади. Кейин уста, механик, завод бошқармаси бош механик муовини сифатида тажриба тўплади. Бугунги кунда у корхонанинг бош механиги сифатида хизмат қилмоқда. Синглиси Мунира Гафурова – ОТКда назоратчи бўлиб ишлайди. У ишдаги пухталиқ ва диққат-эътибори билан танилган. Укаси Алишер Қодиров – 2007 йилда РМП цеҳида токаръ бўлиб иш бошлаган. Ҳозир Аммиак-2 цеҳида чилангар. Ўқиш билан меҳнатни уйғунлаштириб, ўз устида изланишда давом этмоқда. Ўғли – Абдусамад Қодиров ТАТУда ўқишни давом эттирган ҳолда КИП цеҳида созловчи-чилангар сифатида ишлайди. Ёш бўлишига қарамай, меҳнатга садоқати билан танилган. Жияни Зилола Қодирова – босмаҳонада ҳарф терувчи сифатида оила аниёнасини давом эттирмоқда. Абдужалил Қодиров – Абдулаҳад аканинг кичик

Илғорлар ҳақида ҳикоялар



ўғли. Чирчиқ давлат педагогика университетида таҳсил олмоқда. У электрика ҳамда КИП соҳаси бўйича мутахассисликни танлаган ва яқин келажақда корхонада иш бошлаш ниятида.

Бугун «Махам-Чирчиқ» АЖдаги ҳар бир янгиликни, ҳар бир қадам замонавий технологияга асосланган тараққиёт сари йўналмоқда. Бу жараёнда эса сулолавий меҳнат аниёнаси давомчиларининг ҳиссаси бекиёс. Абдулаҳад Қодиров меҳнатдаги содиқлиги ва замонавий фикрлари билан жамоадорларидан ажралиб туради. Қодировлар сулоласи мисолида кўриниб турибдики, улар учун меҳнат – нафақат кундалиқ вазифа, балки ҳаёт мазмунидир.

Воҳид Қодировдан бошланган меҳнат йўли, Қаюм Қодировнинг тинимсиз фаолияти ва Абдулаҳад Қодиров ҳамда унинг қариндошлари орқали давом этмоқда. Улар биринчи авлоддан бошлаб, ҳозиргача ҳалол меҳнати билан бутун жамоага ибрат бўлиб, заводнинг саноат қудрати ва келажақ тараққиётига катта ҳисса қўшишмоқда. Меҳнатга садоқат, билимга интилиш ва инсонпарварлик – бу сулоланинг асосий қоидаси.

Инвестиция соҳасида самарали иш олиб бораётган Абдулаҳад Қодиров ёшларга қимматли маслаҳатини шундай ифода этади:

– Инвестиция соҳасида ишлашни истаган ёшларга маслаҳатим – яхши ўқиш, тил ўрганиш, физика, кимё, география фанларини пухта билиш ва энг асосийси – сидқидилдан меҳнат қилишдир. Меҳнатга садоқат билан ёндашган одам ҳеч қачон кам бўлмайди, – дейди у. Бу сўзлар орқали у нафақат инвестиция соҳаси, балки умуман ҳаёт йўлини танлаётган ҳар бир ёшга дастуриламал йўлини кўрсатади.

Қодировлар сулоласи кимё саноати тарихида меҳнат ва садоқатнинг, авлодлар давомийлиги ва масъулиятнинг ёрқин намунаси сифатида тилга олинади. Бу сулола тарихи – ҳалол меҳнат, сидқидилдан хизмат қилиш, юрт тараққиётига ҳисса қўшиш аниёнасининг порлоқ тимсолидир. Шубҳасиз, келгуси йилларда ҳам Қодировларнинг янги авлодлари завод цеҳларида, илмий-тажриба майдонларида ва инвестиция йўналишларида ўз салмоқли изларини қолдиришда давом этадилар.

Саодат МУСАЕВА,
«Чирчиқ тонги» мухбири

ТАДБИРКОРЛАР УЧУН ЯНГИ ИМКОНИЯТЛАР

Шаҳримизда бўш турган ер майдонлари ва бинолардан самарали фойдаланиш мақсадида давлат-хусусий шериклик асосида янги лойиҳаларни амалга ошириш режалаштирилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 30 октябрдаги «Давлат-хусусий шериклик соҳасини янада такомиллаштириш тўғрисида»-ги 720-сон ва 2024 йил 23 сентябрдаги «Камбағалликдан фаровонлик сари дастурини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида»-ги 330-сон қарорлари ижросини таъминлаш ҳамда Чирчиқ шаҳрини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш мақсадида шаҳарда фойдаланмасдан бўш турган ер майдонлари ва биноларини давлат-хусусий шериклик асосида тадбиркорлик субъектларига ажратиб белгиланган.

Шунга асосан, аҳоли ва тадбиркор-

лик субъектларидан бугунги кунга қадар Чирчиқ шаҳар ҳокимлигига лойиҳаларни амалга ошириш истагини билдирган тадбиркорлардан бир қанча таклифлар келиб тушган. Жумладан, Воҳид Хайдаров маҳалла фуқаролар йиғини, «Металлургия» кўчасида жойлашган 0,6 гектар ер майдонидаги «Ёшлар боғи»ни замонавий Ёшлар истироҳат боғига айлантириш, «Шодлик» МФЙ ҳудудида давлат захирасида бўлган 2 гектар ер майдонида «Шодлик» истироҳат боғини ташкил этиш, шунингдек, мазкур маҳалланинг Амир Темура шох кўчасида жойлашган давлат захирасидаги 1,5 гектар ер майдонида Инновацион экопарк барпо этиш, «Мир

Алишер» МФЙ ҳудудида шаҳар ҳокимлиги захирасидаги 6 гектар ер майдонида дам олиш маскани ташкил этиш лойиҳалари таклиф этилган.

Мазкур таклифлар юзасидан Вазирлар Маҳкамасининг 720-сонли қароридан белгиланган тартибга кўра, аҳолининг, истеъмол қилувчиларнинг ва улардан фойдаланувчиларнинг манфаатларини инобатга олиш мақсадида лойиҳаларнинг концепцияси тасдиқлангунга қадар жамоатчилик муҳокамаси ўтказилади.

Расмий веб-сайтда 10 кун давомида ташкил этиладиган муҳокамалардан сўнг, натижаларга асосан кейинги босқичларга ўтиш ёки ўтмаслик масалалари юзасидан хулоса чиқарилиши белгиланган.

Амалга оширилиши режалаштирилган мазкур давлат-хусусий шериклик лойиҳа-



лари аҳолига қулай шарт-шароит яратиш, шаҳарнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига хизмат қилиши билан бирга, тадбиркорлар учун ҳам янги имкониятларни очиб беради.

Сардор ИРГАШЕВ,
Шаҳар ҳокимининг 1-ўринбосари

ҲАР БИРИ МАЪНАВИЯТ ДАРҒАСИ

Узоқ йиллар давомида Чирчиқ шахрининг ижтимоий-иқтисодий, маданий-маънавий ривожланишига ҳисса қўшган фахрийлардан хабар олиш ХДП шаҳар Кенгаши аъзоларининг анъанасига айланган.

Ушбу тадбирлардан кўзланган асосий мақсадлардан бири – фахрийларимизнинг шаҳар ижтимоий-иқтисодий, маданий-маънавий ҳаётини фаоллаштиришдаги иштирокини ўрганиш, улар тилдан ўтган йилларда шахримиздаги олиб борилган амалий ишларни ёзиб олиш, уларнинг таржимаи ҳоллари, бўлиб ўтган воқеаларни қоғозга солиш ҳамда бугунги ва келгуси авлод учун маънавий ёзма мерос қолдиришдан иборат.

Чирчиқ шаҳрида узоқ йиллик педагогик тажрибага эга бўлган фаол фахрийлар бор. Улардан бири чирчиқлик Рихси Бекбутаева бўлиб, 50 йиллик педагогик тажрибага ва кўплаб шогирдларига эга. Бу нуруний онахон узоқ йиллар давомида Чирчиқ шаҳридаги мактаб, ўрта махсус билим юртларида физика фанидан дарс бериб келди. ХДП Чирчиқ шаҳар Кенгашида Аёллар қанотига раислик қилди, Чирчиқ шаҳар Маънавият ва маъ-

рифат марказига раҳбар бўлди. Бир неча қақриқ Халқ депутатлари Чирчиқ шаҳар Кенгаши депутати, Кенгашдаги доимий комиссиялар раиси бўлган ая шахримиз ривож учун сидқидилдан меҳнат қилди. Ҳозирда кексалик гаштини суриб, 80 ёшни қаршилаётган Рихси ая шахримиз ободлиги, аҳоли фаровонлиги, Тошкент вилоятида энг илғор маъмурий бирлик сифатида ривожланиб боришини тилаб дуога қўл очдилар.

Шунингдек, партия фаоллари тажрибали фахрий педагог Маматкарим Каратаев хонадонда бўлиб, шаҳар тарихига доир кўплаб маълумотларга эга бўлишди.

Маматкарим ота ўз меҳнат фаолияти ҳақида гапирар экан, ўтмиш ва бугунги таълим тизимини солиштириб, бор ҳақиқатни рўй-рост сўзлаб берди. Салкам 10 йил Чирчиқ шаҳар мактаб-интернати директори лавозимида меҳнат қилган ота бу мактабда таҳсил олган 850 нафар ўқув-

чилар кам таъминланган, қаровсиз қолган болалардан иборат бўлгани, уларнинг нафақат таълими, балки тарбия ишларига ҳам устувор аҳамият қаратилгани, айрим ўқувчилар ҳафтада бир марта бўлса ҳам ота-онасининг олдига борса, айримлар ҳафталаб, ойлаб ва айримлари эса йиллаб мактаб-интернатда қолиб кетишини куйиниб хотирлади.

Шундай учрашувлар бўладики, учрашган инсонинг билан охириги мартаба дийдорлашаётган, суҳбатлашаётган бўласан. Бироқ буни на сен, на ўзи билади...

Ана шундай фахрийларимиздан бири – Анвар ота Махсумов. Ҳамшаҳарларимиз томонидан Анвар ҳожи дея эътироф этиладиган ота билан учрашувимиз сўнги дийдорлашув эканини қаердан ҳам билардик?! Қувонганимиз шуки, ота ҳолдан хабар олиш баробарида уларнинг қимматли маълумотларига ва сермазун дуоларини олишга мушарраф бўлдик.

Меҳнат фаолиятини 1973 йилда Чирчиқ шаҳар автобус-такси паркида бошлаган Анвар ота умрининг сўнги кунигача

ЭЪТИБОР

эл дарди, ташвиши билан яшади. Узоқ йиллар "Маърифат" маҳалла раиси, 2020 йилдан Халқ депутатлари Чирчиқ шаҳар Кенгаши депутати этиб сайланган Анвар ота шаҳардаги таълим тизими, қурилиш, ижтимоий-маданий, сиёсий тарихига доир жуда кўп қимматли маълумотларни сўзлаб бердилар.

Фахрийларимизнинг ҳар бир сўзи, ҳар бир хотираси – бу тарихнинг битиклари, маънавият китобининг жонли саҳифаларидир. Улар қалбидан чиққан самимий дуолар шахримиз тараққиёти, авлодлар тарбияси учун нурули йўл вазифасини ўтайди. Шаҳримизда шундай нуруний ва тажрибали фахрийлар бор экан, Чирчиқнинг келажоғи янада фаровон бўлишига ишончимиз комил.

Акмал САМЕДЖАНОВ,
"Чирчиқ тонги" газетасининг
жамоатчи мухбири

ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК: ҲУҚУҚ, БУРЧ ВА МАСЪУЛИЯТ

Жамиятимизда инсонпарварлик ва ғамхўрлик тамойиллари асосий қадриятлардан бири ҳисобланади. Айниқса, ёрдамга муҳтож болалар ва ноиронлиги ёки саломатлиги сабабли ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини мустақил амалга ошира олмайдиган шахсларни қўллаб-қувватлаш муҳим аҳамиятга эга. Шу нуқтага назардан мамлакатимиз қонунчилигида васийлик ва ҳомийлик институти алоҳида ўрин тутаяди.

Оила кодексининг 21-боби, 173-моддасида мазкур институтни белгилаш тартиби, мақсад ва шартлари аниқ кўрсатиб берилган.

Васийлик, асосан, 14 ёшга тўлмаган етим болалар ёки ота-онасининг қарамоғидан маҳрум бўлган болаларга, шунингдек, суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган шахсларга белгиланади. Бу орқали уларнинг тўлиқ таъминоти таъминланади, тарбия ва таълим жараёнида ғамхўрлик қилинади, шунингдек, уларнинг мулкӣ ва шахсий-номулкӣ ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатлари ҳимоя қилинади.

Ҳомийлик эса 14 ёшдан 18 ёшгача бўлган етим болалар ва ота-онасининг қарамоғидан маҳрум қолган ўсмирларга, шунингдек, суд қарори билан муомалага лаёқати чекланган фуқароларга тайинланади. Ҳомийнинг вазифалари ҳам васийники билан деярли бир хил бўлиб, асосий мақсад – бола ёки шахснинг таъминоти, тарбияси ва таълими, шунингдек, уларнинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдир.

Васийлик ва ҳомийлик туман ёки шаҳар ҳокимларининг тегишли қарорлари асосида белгиланади. Бу жараёнда шахснинг манфаатлари биринчи ўринда туради, шу билан бирга, васий ёки ҳомий бўлиш истагини билдирган номзоднинг



маънавий-ахлоқӣ фазилатлари, моддий имкониятлари ва масъулиятли шахс сифатидаги қобилиятлари ҳам инобатга олинади.

Қонунчиликка кўра, агар вояга етган, аммо, саломатлиги сабабли мустақил равишда ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини амалга ошира олмайдиган шахс бўлса, у ҳолда ҳам ҳомийлик тайинланиши мумкин. Бу эса кўпроқ қариялар ёки имконияти чекланган фуқароларнинг шахсий илтимосларига кўра амалга оширилади.

Бир сўз билан айтганда, васийлик ва ҳомийлик нафақат ҳуқуқӣ меъёр, балки юртимиздаги меҳр-шафқат ва инсонийликнинг ёрқин ифодасидир.

Фируза АБДУЛЛОЕВА,
Чирчиқ шаҳар ФХДЁ бўлимнинг
иккинчи тоифали инспектори

СИФАТЛИ ХИЗМАТ – ИСТЕЪМОЛЧИГА ҲУРМАТ

Чирчиқ шаҳар Истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш жамияти ишчи гуруҳи шаҳар бозорларида аҳоли билан очиқ мулоқот ўтказди. Самимий ҳамда самарали тарзда кечган учрашув давомида фуқаролардан бозордаги нарх-наво, хизмат кўрсатиш маданияти ва ўз ҳуқуқларини билиш ҳамда улардан фойдаланиш даражаси ҳақида фикр алмашилди.

Аҳоли вакиллари, аввало, нархларнинг барқарор бўлиши муҳимлигини таъкидлаб, бу орқали оилалар ўз харажати олдидан режалаштириб, тинч ва ишончли ҳаёт кечирishi мумкинлигини қайд этдилар. Кимдир бозор нархларидан қониқиш билдирса, бошқалар маҳсулот сифати юзасидан ўз эътирозларини айтишди.

Шунингдек, савдогарларнинг одоб-ахлоқи, тарозининг ҳаққонийлиги, маҳсулотнинг тозаллиги ва сифатли бўлиши – харидор ишончини қозонадиган асосий омиллар сифатида тилга олинди. Шу билан бирга, айримлар ҳуқуқӣ билимларни оширишга эҳтиёж борлигини, бу йўналишда жамият томонидан тушунтириш ишларини янада кучайтириш зарурлигини таъкидладилар.

Фуқароларга, оддий хариддан тортиб, йирик савдо жараёнларигача ҳар бир истеъмолчи ўз манфаатини қонуний йўл билан ҳимоя қилиш имкониятига эга эканлиги хусусида тушунтиришлар берилди. Айниқса, маҳсулот сифатига талаб қўйиш, адолатли хизматдан баҳраманд бўлиш ва фирибгарлик ҳолатларига қарши туриш каби ҳуқуқӣ билимлар аҳоли онгида мустаҳкамланишига алоҳида эътибор қаратилди.

Жамият вакиллари таъкидлаганидек, бундай учрашувлар бир марталик эмас, балки доимий равишда ўтказиб бори-



лади. Чунки бозор ҳаёти ўзгарувчан ва унда ҳам истеъмолчи, ҳам савдогарнинг манфаати бир-бирига ўзаро боғлиқ. Шу боис, очиқ мулоқотлар нафақат мавжуд муаммоларни ҳал қилиш, балки келгусида уларнинг олдини олишга ҳам хизмат қилади.

Бу учрашув фақат бозор муҳитини ўрганиш эмас, балки аҳоли билан яқин мулоқот қилиш, уларнинг турмуш сифатини юксалтиришга қаратилган қадам сифатида аҳамиятли бўлди.

Рустамбек РИСБАЕВ,
Чирчиқ шаҳар Истеъмолчилар
ҳуқуқларини ҳимоя қилиш жамияти
раиси

НИКОҲНИ РАСМИЙЛАШТИРИШДА ЯНГИ ТАРТИБ

Тахририятимизга келган саволларга Чирчиқ шаҳар ФХДЁ бўлими 1-тоифали инспектори Гавҳар ЭШОНХОНОВА жавоб беради.

– Никоҳланувчи шахсларни тиббий кўрик натижаларини тақдим этиш борасидаги янгиликлар ҳақида маълумот берсангиз.

– 2025 йил 8 сентябрь кунда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Давлат хизматларини кўрсатиш тизимини такомиллаштириш ҳамда соҳада бюрократик тартиботларни қисқартиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" Фармони қабул қилинди.

Давлат бошқарувида ортиқча бюрократик тўсиқларни, мураккаблашган тартиботлар ва эскирган ёндашувларни

бартараф этиш ҳамда давлат хизматларини кўрсатишни янги босқичга олиб чиқишга қаратилган ислохотларни изчил давом эттириш мақсадида ушбу Фармон қабул қилинди.

Фармонга кўра, 2025 йил 1 декабрдан бошлаб идоралараро ахборот алмашувини йўлга қўйиш орқали қуйдагилар бекор қилинди:

– никоҳни расмийлаштиришда ФХДЁ органлари томонидан никоҳланувчи шахслардан тиббий кўрик натижаларини тақдим қилиш талаби бекор қилинади. Яъни бунда ФХДЁ органлари томонидан «ФХДЁнинг ягона электрон архиви» ахборот тизимида идоралараро интеграция орқали никоҳланувчи шахсларнинг тиббий кўрик натижалари тиббиёт муассаси-

нинг электрон тизимидан олади.

– никоҳдан суд қарори асосида ажратилганда, никоҳдан ажралганлик ҳақидаги далолатнома ёзувини шакллантириш учун ФХДЁ органлари томонидан никоҳдан ажратилган шахслардан суд қарори талаб қилинмайди ва бунда:

– никоҳдан ажралганлик ҳақидаги далолатнома ёзуви суд жойлашган жойдаги туман (шаҳар) ФХДЁ органи томонидан «ФХДЁнинг ягона электрон архиви» ахборот тизимида автоматик равишда шакллантирилади ҳамда суд қарори нусхаси никоҳдан ажралганлик тўғрисидаги гувоҳномага тенглаштирилади;

– никоҳ бекор қилинганлигини қайд этганлик учун ундирилдиган давлат божи суднинг қарорига асосан эр-хотиннинг



ҳар иккаласидан ёки уларнинг биридан белгиланган тартибда мажбурий ижро бюросининг туман (шаҳар) бўлимлари томонидан ундирилиши белгилаб қўйилди.

Ушбу ислохотлар орқали никоҳ ва ажрим жараёнлари янада соддалашиб, фуқароларнинг ортиқча қоғозбозликка сарфлайдиган вақти тежаладиган бўлди.

**BOLALIKNING
TELEGRAMI**

Bugunim o'tmishdan yiroqlashmoqda,
Dil xo'ngrab yig'laydi, ko'zda nami yo'q.
Qarang, farzandlarim ko'zin quvnatib
Kulgan, bolalikning telegrami yo'q.

Oqibat tarmoqda, bog'langan simsiz,
Baland koshonalar, uylar kimsasiz.
Bugungi yoshlarga chidab, deb afsus
Qilgan, bolalikning telegrami yo'q.

Unutib tashvish-u, g'urbat barini,
Kuzatib uyidan yosh-u qarini,
Tengdoshlar, do'stlarni yurak bag'rini
Tilgan, bolalikning telegrami yo'q.

Hayot sinovining ko'pidan, kamdan
Kipriklar cho'milar ko'zdagi namdan.
Izladim instagram-u, telegramdan,
Kulgan bolalikning telegrami yo'q.

Yoshlik nihollari gullab bog' bo'ldi,
Eslab bolalikni ko'nglim tog' bo'ldi.
Necha xasta dillar vaqti chog' bo'ldi,
Bilsam, bolalikning telegrami yo'q.

Qaytmoqqa qurbi yo'q zar-u, zo'rimni,
O'rtaydi, kuygan mana bu yerimni.
Telegramda yozgan yangi she'rimni
Bilgan, bolalikning telegrami yo'q.
Mirzabek SHERBEKOV

O'zbekiston Respublikasi Uazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga muvofiq, joriy yilning 15 sentabridan 15 oktabriga qadar mamlakatimizda "Yong'indan ogohlik" umummilliy oyligi o'tkazilmoqda. Ushbu oylik doirasida ta'lim muassasalarida yong'inlarning oldini olish va yong'in sodir bo'lgan holatda to'g'ri harakat qilish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, davlat idoralari, tadbirkorlik sub'yektlari va boshqa tashkilotlarda, ish joylarida yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazilib, evakuatsiya rejalarini hamda o't o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi bilan tanishtirilmoqda.

**MAVSUMNI BETALOFAT
O'TKAZAYLIK**

Aholi o'rtasida yong'in xavfsizligi ma'ruzalar, mahorat darslari va tanlovlar tashkil etilib, tarqatma materiallar tayyorlanmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda yong'inlarning oldini olish hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha qo'llanmalar tarqatilib, maxsus sahifalar yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali maqolalar, intervyular va ko'rsatuular e'fira uzatilmoqda. Jamoat joylari, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini va turar-joylarda amaliy o't o'chirish mashg'ulotlari ham izchil tashkil etilmoqda.

Oylikning asosiy maqsadi aholi va hududlarni turli favqulodda holatlardan muhofaza qilish, inson hayoti bilan bog'liq salbiy oqibatlarini oldini olishdan iborat.

Chirchiq shahri Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan aholi g'ujum maskanlar, tibbiyot muassasalari, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish va ijtimoiy soha obyektlarida hamda mahallalarda kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarni bartaraf etish maqsadida profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, bunday chora-tadbirlar kuchaytirilgan tartibda tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Bu yo'nalishdagi ishlar kelgusida ham izchil davom ettirilib, aholi xavfsizligi doimo e'tibor markazida bo'ladi.

Jamol BAXROMOV,
Chirchiq shahar FUB Tezkor bo'linma
boshlig'i, podpolkovnik



Muassis:

Toshkent Viloyati Chirchiq Shahar
HOKIMLIGI"Chirchiq tongi" gazetasi tahrir
hay'ati:

Murodjon ABDURAHIMOV
(tahrir hay'ati raisi)
G'afurjon MUHAMEDOV
Ibrohim HASANOV
Saodat MUSAYEVA
Ilhom ASADOV
Abduhamid FOZILOV

Bosh muharrir:

Iroda
MUHAMMADAZIZOVA

Gazetaga 1932-yilda asos
solingan

2011-yil 22-avgustda Toshkent
viloyati Matbuot va axborot
boshqarmasida 03-024 raqam
bilan ro'yxatga olingan

Manzilimiz: 111700,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,
Amir Temur ko'chasi, 1-uy, 409,
410, 411 va 412-xonalar

Adadi: 3000 nusxa.**Hajmi** - 1,5 bosma taboq.

Qog'oz bichimi A-3. Ofset
usulida bosilgan. Bahosi
kelishilgan narxda
ISSN 2181-7170

Telefonlar:**Qabulxonasi:**

71-71-5-36-40.

E'lonlar va hisob-kitob

bo'limi:

71-71-5-00-14

Nashr indeksi: 64694

Topshirish vaqti-13.00.

Topshirildi-14.00.

Gazeta tahririyat kompyuter
markazida

Xatira YUSUPOVA

tomonidan sahifalandi

Navbatchi:

Malika Riskidinova

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi
va muallifga qaytarilmaydi.
Reklama materiallaridagi dalillar
va faktlarga tahririyat javobgar
emas

«NISO NASHRIYOT VA MATBAA
UYI» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxonasi manzili:
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq
tumani,

Mash'al mahallasi, Markaziy
ko'cha, 1-uy.

Buyurtma №**UCH AVLOD BTR DAVRADA**

Mamlakatimizda
keksalarni har
tomonlama qo'llab-
quvvatlash, ularning
turmush darajasi
va ijtimoiy faolligini
oshirish, yoshlarni
esa vatanparvarlik
ruhida tarbiyalashga
qaratilgan keng
ko'lamlil ishlar amalga
oshirilmoqda.

Shu maqsadda
shahrimizda
navbatdagi "Uch
avlod uchrashuvi"
tadbiri tashkil etildi.

Tadbir shahar
hokimligi, "Nuroniylar"
jamg'armasi
hamda Chirchiq
davlat pedagogika

universiteti hamkorligida o'tkazildi.

Uchrashuvda nuroniylar, faxriylar, yoshlar va talabalar
ishtirok etdi.

Keeksalar o'z tajribalari va hayotiy maslahatlarini yoshlarga
ulashdilar. Yoshlar esa o'z navbatida she'r va raqslar bilan
chiqishlar qilib, tadbirga ko'tarinki ruh bag'ishladilar.

Tadbir yakunida ishtirokchilar bunday uchrashuvlar
keeksalarni e'zozlash, yoshlar ongida milliy qadriyatlarini
mustahkamlash va avlodlar o'rtasida uzviylikni ta'minlashda
muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladilar.

**BOLALAR UCHUN LATIFALAR**

Quyvon bilan ayiq xazina topib
olishibdi.

Ayiq: – Kel, bir-birimizni bir
mushtdan uramiz. Kim ko'p tishlarni
sindirsa, xazina o'shaniki. Quyvon rozi
bo'libdi, birinchi bo'lib quyvon uribdi.

- Nechta?
- Bir, ikki, uch... oltita.
- Ayiqni navbatini kelib,
uribdi.
- Nechta?
- To'yta.
- Qanaqasiga to'rtta?
- Bosqa yo'q-da.

**"...nonga bormayman"**

Kunlarning birida toshbaqa,
tulki, bo'ri uchalasi ov qilishib
o'ljani birgalikda yeyishga
qaror qilib, toshbaqani nonga
yuborishga kelishibdi.

Bir soat o'tibdi, ikki soat
o'tibdi, kelmabdi. Tulki bilan
bo'rini qorinlari ochib, jahli
chiqib shunday, debdi:

– Agar hozir toshbaqa
kelsa, kosasini ikkiga ayrib
majag'lab tashlayman, urib
abjag'ini chiqaraman, – debdi.

Shunda eshik asta ochilib:
– Agar shunday qilsanglar
nonga bormayman, – debdi
toshbaqa.

E'LO**"CHIRCHIQ DEHQON BOZORI"
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI**

«Chirchiq dehqon bozori» MCHJ ta'sischilarining navbatdagi umumiy majlisi 2025-yil 21-oktabr kuni soat 12:00 da Chirchiq dehqon bozori ma'muriyat binosida bo'lib o'tadi.

Yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish soat
11:30 dan 11:50 gacha amalga oshiriladi.

Yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish uchun
ta'sischilar va ta'sischi vakillarining shaxsni
tasdiqlovchi hujjatlari hamda ishonchnoma kerak
bo'ladi.

Kun tartibi:

1.Chirchiq shahridagi 10-kichik nohiya
hududidagi bozorga ajratilgan 0,7ga yer
maydonida qurilish va rekonstruksiya ishlarini
amalga oshirish haqida.

2.Ta'sis hujjatlarini yangi tahrirda tasdiqlash
haqida.

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi Bosh vaziri A.Oripovning topshirig'i
bo'yicha tadbirkorlar mablag'lari hisobidan
«Chirchiq dehqon bozori» MCHJ tomonidan
qurib berish majburiyati olingan qurilish osti
356,13 kv.m maydonli 16 ta do'konni egalari
rasmiylashtirib berish haqida.

4.Boshqa masalalar.

Manzil: Chirchiq shahar, Sh.Rashidov
ko'chasi 16, "Chirchiq dehqon bozori" jamiyat
ma'muriy binosi.

Murojaat uchun telefon: 171 50455

"CHIRCHIQ DEHQON BOZORI"
MA'MURIYATI.

**SAMIMIY
QUTLOVLAR**

"Maxam-Chirchiq" AJ
boshqaruvi va kasaba
qo'mitasi mehnat faxriylari
Kulmanova Xasiyat 95,

Niyazova Kitpi, Sharapova
Guzibuva Turtayevna 85, Bryukov
Andrey Grigoryevich 75, Gayupova
Sharipa Akramovna, Kamilov
Abdugani, Yapparov Mullanur
Sharifulloevich 70 yoshlari bilan
samimiy qutlaydi va ularga sihat-
salomatlik, oilaviy osoyishtalik
hamda shod-u hurramlik tilaydi.